

**CRITERIA FOR MODERNIZATION AND EVALUATION OF THE CONTENT OF THE TRAINING PROCESS OF OFFICERS ON THE BASIS OF A COMPETENCY-BASED APPROACH**

Khalilayev Batirjon Taxirovich

Chirchik Higher Tank Command Engineering School Lecturer, Department of Natural Sciences Independent researcher of the Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

**ANNOTATION**

This article discusses the role of professional competence in the training of future officers in higher military education, the criteria for modernization and evaluation.

**Keywords:** credit module, modernization, integration, competence, professional competence.

**OFITSERLAR TAYYORLASH JARAYONI MAZMUNINI KOMPETENTLIK YONDASHUV ASOSIDA MODERNIZATSİYALASH VA BAHOLASH MEZONLARI**

Xalilayev Batirjon Taxirovich

Chirchiq Oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada Oliy harbiy bilim yurtlarida bo'lajak ofitserlarga ta'lim berishda kasbiy kompetentlikuning o'rni, modernizatsiyalash va baholash mezonlari haqida fikr va mulohazalar yuritilgan

**Kalit so'zlar:** kredit-modul, modernizatsiya, integratsiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik. Har bir davlat o'zining taraqqiy etishi, istiqboli rivoji yo'lida eng dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lgan kadrlar tayyorlash siyosatini tizimga qo'yish va bu bilan kelajakda davlatning yuksak marralarni zabit etishni ko'zlaydi. Barcha jabhalarda mamlakatning rivojlanishi kadrlarni tayyorlash tizimi bilan chambarchas bog'liqdir.

Mamlakatimizda istiqlolning ilk yillaridanoq mustaqil fikrlovchi, tafakkuri va salohiyatini to'la namoyon eta oluvchi, keng dunyoqarashga ega shaxsni tarbiyalash umummilliy maqsadga aylandi. Shu bois yurtimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, shuningdek, uzuksiz ta'lim tizimini shakllantirishga oid huquqiy asoslar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh. M. Mirziyoyevning tashabbuslari bilan O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Buning yaqqol misolini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan respublika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish vazifasi belgilanganligida ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan xorijiy davlatlar oliy ta'lim muassasalarining aksariyati Yevropa (ECTS – European Credit Transfer System) tizimi asosida ta'lim beradi. Shu jumladan, xorijiy davlatlarning nafaqat

fuqarolik, balki oliy harbiy ta'lim muassasalarida ham ta'lim jarayoni kredit-modul tizimi Yevropa standarti asosida tashkillashtirilgan.

Shu sababli mustaqillikning ilk yillaridanok jamiyat va iqtisodiyotni tubdan isloh qilish jarayonida ta'lim sohasida jahonda munosib o'rinni egallahsga qaratilgan yangi uzluksiz ta'lim tizimini yaratish va rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar eng avvalo, fan va texnikaning ildam taraqqiyoti, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning zamonaviylashuvi, asosiy buyurtmachi sifatida davlat va ijtimoiy hayotning ta'limga qo'yayotgan yangidan-yangi talablariga mos ravishda ta'lim-tarbiyaning sifat-samaradorligini uzluksiz takomillashtirib borishga qaratilgan.

Ta'lim sohasidagi milliy dasturlar doirasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va erishilgan qator ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan, ta'lim sifat samaradorligi rivojlanishi dinamikasini yanada jadallashtirish, bunda yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan samarali foydalanish bugungi kunda eng dolzarb masala hisoblanadi.

Kursantlarning bilim olish motivatsiyalarini shakllantiruvchi mexanizmlarni va o'qitishning yangi shakl, noan'anaviy uslublari orqali ularning bilish jarayonlarini faollashtirish tizimini takomillashtirish hamda indikatorlar tizimi orqali ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqib amalga joriy etish zarurati mavjud.

Shu nuqtai nazaridan, ta'lim-tarbiya jarayonida nafaqat kursantlarga fanlar bo'yicha bilim berish, balki egallagan bilim va malakalarini amalga tatbiq etish, ulardan kelajakdag'i faoliyatida foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish ham asosiy vazifalardan biridir.

Mazkur muammolarni hal etish yo'llaridan biri-harbiy ta'lim muassasalari, rahbar xodimlar, professor-o'qituvchilar va ofitserlar uchun ta'lim xizmatlari (ilmiy-uslubiy va axborot ta'minoti, professor-o'qituvchilar xodimlarni tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, uslubiy xizmat tizimi) sifatini oshirish masalasi ham dolzarb hisoblanadi.

Oliy ta'limni mazmunan modernizatsiyalashda asosiy quyidagi vazifalarning bajarilishi nazarda tutiladi:

iqtidorli kursantlarning qobiliyati va iste'dodini aniqlash, tarbiyalash, ular iste'dodini tulaqonli ro'yobga chiqarishning yagona umumilliy tizimini shakllantirish, o'quv-tarbiya jarayonini individuallashtirish va tabakalashtirish ilmiy asoslarini yaratish;

o'quv rejalaridagi turdosh fanlarni integratsiyalash orqali o'quv yuklamalari ko'lami va xajmini maqbullashtirish;

oliy harbiy ta'lim muassasalarida virtual o'quv-laboratoriya, zamonaviy axborot kommunikatsiya, masofadan o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish, darslik, o'quv qo'llanma va o'quv filmlarining elektron shakllarini yaratish va ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish;

professor-o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish tizimi faoliyatining samaradorligini oshirish, ta'lim muassasalarini malakali mutaxassislar bilan to'liq ta'minlash choralarini belgilash;

oliy ta'limda kursant aqliy hamda yaratuvchanlik faoliyatini oqilona uyg'unlashtirish yo'li bilan olingan bilimlarini harbiy faoliyatida qolish;

ta'lismazmunining bevosita shaxsga yo'naltirish va ta'limgoluvchilarning shaxsiy ijodiy qobiliyatlarini boyitish, mavjud imkoniyatlarini rivojlantirishda ularning qiziqish va ishtiyorlarini hisobga olgan xolda ta'limni ijtimoiylashtirish, individuallashtirish; insoniylik va insonparvarlik, kursantlarning jismoniy, intellektual, ma'naviy-ahloqiy, estetik, kommunikativlik qobiliyatini rivojlantiruvchi omillarning ta'lim mazmunida aks etishi. Bo'lajak ofitserlarni tayyorlashning yakuniy maqsadi kasbiy-pedagogik faoliyati sohasida kasbiy mahorat, mutaxassislik va psixopedagogik bilimlari tizimi hamda bo'lajak ofitser shaxsini kasbiy kompetentligini shakllantirishdan iboratdir.

Harbiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha bo'lajak ofitserlarning quyidagi umumiy malakaviy kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim:

Umumiy kompetensiyalariga:

Ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umumkasbiy fanlar asosi, taktik urush muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va xizmat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

milliy ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini og'zaki va yozma bayon etishi, milliy g'oyaning nazariy asoslarni anglagan holda "Vatanga xizmat – muqaddas burch" bosh g'oyasining mohiyatini hamda uning asosiy g'oyalar bilan mutanosibligi va farqini bilishi;

Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

o'zining individual bilimlariga tayangan holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;

o'z xizmat faoliyatida me'yoriy – huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishslashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishslash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

bugungi axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tessavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

Kasbiy kompetensiyalariga:

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi, harbiy xizmat o'tash huquqiy bazasini va O'zbekiston Respublikasining boshqa me'yoriy-huquqiy aktlarining asosiy mazmunini bilishi;

harbiy xizmatning turli yo‘nalishlarini tartibga soladigan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy Nizomlari va boshqaruv hujjatlarini bilishi, hamda o‘z kasbiy faoliyatida ularni qo‘llay olishi;

Vatanga Qasamyod, Vatani, halqi va Prezidentiga, O‘zbekiston Respublikasi hukumatiga sodiq bo‘lishi, davlat rahbariyati qarorlarini tushunishi va hayotga faol tadbiq etishi;

milliy manfaatlarni himoya qilish va davlatning milliy xavfsizligi, yaxlitligi va suverenitetini ta’minlashga tayyor bo‘lishi;

davlat manfaatlarini himoya qilish yo‘lida jonini fido qilishga tayyor bo‘lishi hamda harbiy kasbning davlat va ijtimoiy mohiyati va ahamiyatini anglashi;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibi va tuzilishini, Qurolli Kuchlari qo‘sishin va bo‘linma turlarining jang olib borish taktikasi hamda ularning har tomonlama ta’minlanishini hamda mutaxassisligiga muvofiq qurol-aslaha va harbiy texnikani va ulardan amaliy foydalanishni bilishi;

o‘z mutaxassisligi bo‘yicha qo‘sishnlarning tashkillashtirilishi, qurollanishi va jangovar texnikasi, vazifalari, jangovar imkoniyatlari va jangovar qo‘llanishining asosiy tamoyillarini bilishi hamda barcha turdagji jangovar harakatlarda mutaxassisligidan kelib chiqqan holda bo‘linmalarni boshqarishning asosiy metodlari, tamoyil va usullarini bilishi, tez o‘zgaruvchan taktik vaziyatda tezkorlik bilan nostandard va asoslangan qaror qabul qilishga tayyor bo‘lishi; o‘zbekiston Respublikasi davlat tilini bilishi, boshqa davlatlar harbiy xizmatchilar bilan muloqotda bo‘lishi va zamonaviy kasbiy ma’lumotlarga ega bo‘lishni ta’minlaydigan darajada chet tillardan birini bilishi lozim.

Tarbiyaviy faoliyatida:

O‘z xizmat faoliyatini ilmiy asosda tashkillashtirishi va bo‘ysunuvchilarini boshqara olishi, boshlang‘ich bo‘g‘in bo‘linmalarini boshqarish ko‘nikmalariga mustahkam ega bo‘lishi hamda harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi etik va huquqiy me’yorlarni hisobga olgan holda, bo‘ysunuvchilar bilan tarbiyaviy ishlar olib borish usullarini bilishi va amaliyotda qo‘llay olishi;

bo‘ysinuvchi harbiy xizmatchilar (muddatli harbiy xizmatchilar, shartnomalarning asosidagi harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilari) bilan ma’naviy-ma’rifiy, ahloqiy-ruhiy va tarbiyaviy yo‘nalishlarda ishlarni rejalashtirish, tashkillashtirish va hisobini yuritish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

Ofitserlarning kasbiy kompegentligini baholash mezonlari

Bo‘lajak bo‘lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda mutaxassislik fanlarini o‘qitish va kursantlarning bu fanlardan olgan baho larining obyektivligi muhim rol uynaydi. Kursantlarda kasbiy kompetentlikni shakllanganligini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar e’tiborga olinadi:

mashg‘ulot jarayonida berilgan har qanday vazifaga ijodiy yondashib hal etishi, zamonaviy harbiy texnikalarni amalda ko‘llay olishi;

yangi ma’lumotlarni egallahsga intilishi, ularni amaliyotga tatbiq etishi;

mashg‘ulot jarayonida o‘z ishi va safdoshlari bajargan ishlariga baho bera olishi.

Ta’lim jarayonida ta’lim samaradorligini natijalari DTS lariga muvofiqligini aniqlash va baholash kerak.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar jarayonining muhim tarkibiy kismlaridan biri - nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. Ofitser-o'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lif jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun ofitser-o'qituvchi kursantning o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab berishi lozim.

Kursantlarning o'zlashtirish natijalarini hisobga olishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

o'quv dasturi asosida mavzu va bo'limni o'rganishda kursantlarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish;

har bir yakunlangan mavzu bo'yicha kursantlarning faoliyati to'grisida xulosa chiqarish; kursantlarning mavjud bilimlariga aniq, batafsil ma'lumot (tavsif) berish uchun ularning bir necha o'quv yilidagi statistik o'zlashtirish ma'lumotlarga asoslanib tahlil etish.

Demak, o'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

Harbiy faoliyatni mashg'ulotning maqsad va vazifalarini belgilash sohasidagi kompetentligini shakllanish darajasini quyidagi mezonlar bo'yicha baholanishi mumkin:

ofitser-o'qituvchi dars mavzusini va maqsadini ajratadi;

maqsadlar kursant uchun tushunarli shaklda ifodalaniladi;

kursantlar oldiga qo'yilgan maqsadlar ijobiy motivatsiyani ifodalash va o'quv faoliyatga qiziqishi o'sishi uchun xizmat qiladi;

kursantlar oldiga qo'yilgan maqsadlar yakka va guruhiy faoliyatlarni ifodalashga imkon beradi;

kursantlarning oldida turgan maqsadlar ularga olingan natijalar sifatini mustaqil baholay olish imkonini beradi;

nazoratning maqsad va vazifalari ta'limi xarakterga ega bo'lib, ular professor-o'qituvchilar tomonidan ifoda etadigan predmet materialiga muvofiq keladi;

ofitser-o'qituvchi tomonidan belgilangan maqsad va vazifalari kursantlarning ijobiy imkoniyatlarini rivojlantirishga, shaxsdagi ijtimoiy muhim sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Oliy harbiy ta'lif muassasasida tayyorlanayotgan bo'lajak ofitserlarning kasbiy kopetentligini shakllantirish muammosining hal etilishi oliy ma'lumotli mutaxassislarini tayyorlashda pedagogik va kasbiy fanlarning ilgor yutuqlarini qo'llash, xususan, kompyuter texnologiyalari, texnologik yondashuvlar, kursantlarning bilish faoliyatlarini rejali boshqarish asosida faollashtirishdan, oliy ta'lif muassasasining ta'lif amaliyotiga zamonaviy o'qitish milliy tarbiya texnologiyalarining joriy etish, samaradorlik oshishiga yordam beradigan psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratish orqali erishilishi aniqlandi.

Bo'lajak ofitserlarning harbiy faoliyatini va oliy ta'lif muassasasida mutaxassislarini tayyorlash mazmunini tahlil qilish hamda ularning kasbiy kompetentligi tarbiyalashning bugungi holatiga nisbatan aniqlash imkonini berdi. U bo'lajak ofitserni kasbiy harbiy faoliyatning maqsadlari, vazifalari va xarakteri bilan aniqlanadi hamda bo'lajak ofitserning mazkur faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi va qodirligining nazariy, amaliy va motivatsiyali birligidan iboratdir.

Ofitserlarning kasbiy kompetentligini shakllantirish harbiy va texnik bilimlarni fan, ta’lim, texnika, texnologiya va ishlab chiqarish iqtisodiyoti sohalaridagi o’zgarishlarga asoslangan integratsiyasi ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayon kasb ta’limi ofitserini tayyorlash mazmunini asoslash va kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasini yaratishda muayyan o’zgarishlarni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirish yuzasidan tahlil ishlarini olib borish natajasida ilmiy adabiyotlarda kompetentlikning quyidagi turlarga bo’linishi aniqlandi: kommunikativ kompetentlik; bilim olish kompetentligi; intellektual kompetentlik; intellektual-korporativ kompetentlik; axborot olish kompetentligi; texnologik kompetentlik; madaniy kompetentlik; psixologik kompetentlik; psixologik-pedagogik kompetentlik; ijtimoiy-psixologik kompetentlik; umummadaniy kompetentlik.

Fan va texnikaning ildam taraqqiyoti, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning zamонавиylashuvi, asosiy buyurtmachi sifatida davlat va ijtimoiy hayotning ta’limga qo’yayotgan yangidan-yangi talablariga mos ravishda ta’lim-tarbiyaning sifat-samaradorligini uzlusiz takomillashtirib borishni, uzlusiz ta’lim tizimini mazmunan modernizatsiyalashni, ta’lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko’tarishga xizmat qiladigan ta’sirchan choralarни ko’rishni taqozo kildi. Natijada oliy harbiy ta’limni mazmunan modernizatsiyalashda asosiy vazifalari, tamoyillari, yo’nalishlari aniqlandi.

Bo’lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda mutaxassislik fanlarini o’qitish va kursantlarning bu fanlardan olgan baholarining obyektivligi muhim rol uynaydi. Kursantlarda kasbiy kompetentlikni shakllanganligini baholashda ularning kasbiy tayyorgarligi hamda harbiy faoliyati bo'yicha baholash mezonlari ishlab chiqildi.

### **ADABIYOTLAR**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O’smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zahirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 2019 yil 28 iyundagi PQ-4375-son qarori.
2. Виландеберк А.А., ШубинаНюЛ. Новые технологии оценки результатов обучения. Методическое лособие для преподавателей.
3. Картежников Д.А. Визуальная учебная среда как условие развития математической компетентности студентов экономических специальностей: Omsk, 2007. 23 стр.
4. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o’qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya.- T.: Fan, 2004, 127 b.
5. Maxmudov A.X. Uzlusiz ta’lim jarayoniga kompetentlik yondoshuvini joriy kilishning didaktik asoslari // Uzlusiz ta’lim ilmiy- nazariy jurnali, Toshkent, 2012, № 4. 8-12 betlar.
6. Mannopov J., Xolmatova A. Kasb ta’limi o’qituvchisining mustaqil pedagogik faoliyat yurita olish kompetentligini shakllantirish//Uzlusiz ta’lim tizimida o’qituvchilarni kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari: Resp.ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU,2013.